



FOUNDATIONS OF ASCETIC DOCTRINE IN ORTHODOXY

Gulnora Khudoyberganova

Associate Professor, PhD

Department of Religious Studies and Comparative Study of World Religions (UNESCO)

International Islamic Academy of Uzbekistan

E-mail: gulnoraxudoyberganova@iiiau.uz

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: asceticism, Christianity, Orthodoxy, Philokalia, holiness, passions, synergistic principle.

Received: 02.03.26

Accepted: 03.03.26

Published: 04.03.26

Abstract: This article examines the concept of asceticism in Christian doctrine, its historical formation, theological foundations, and practical manifestations within Orthodox Christianity. The study analyzes the development of ascetic thought based on Biblical texts, the role of Jesus Christ and the Apostolic tradition, as well as ascetic practices reflected in the Philokalia. Particular attention is paid to the stages of Orthodox asceticism, the struggle against passions, and the concept of holiness as a path to spiritual perfection.

PRAVOSLAVLIKDA ASKETIK TA'LIMOT ASOSLARI

Gulnora Xudoyberganova

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

"Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy

o'rganish UNESCO" kafedrasi dotsenti, PhD

E-mail: gulnoraxudoyberganova@iiiau.uz

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: asketizm, xristianlik, pravoslavlik, Filokaliya, muqaddaslik, ehtiros, sinergetik tamoyil.

Annotatsiya: Mazkur maqolada xristianlik ta'limotida asketizm tushunchasining shakllanishi, uning tarixiy va ilohiy asoslari hamda pravoslavlikdagi nazariy-amaliy jihatlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda asketizmning Bibliya matnlariga tayangan holda rivojlanishi, Iso Masih va havoriylar ta'limotidagi o'rni, shuningdek,

“Filokaliya” to‘plamida aks etgan asketik tajribalar yoritilgan. Maqolada pravoslav asketizmining bosqichlari, ehtiroslar bilan kurash tamoyillari va muqaddaslik g‘oyasi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

ОСНОВЫ АСКЕТИЧЕСКОГО УЧЕНИЯ В ПРАВОСЛАВИИ

Гульнора Худойбергanova

Доцент, PhD

кафедры религиоведения и сравнительного изучения мировых религий (UNESCO)

Международной исламской академии Узбекистана

E-mail: gulnoraxudoyberganova@iiu.uz

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	аскетизм, христианство, православие, святость, страсти, синергия.	Аннотация:	В статье рассматривается формирование понятия аскетизма в христианском учении, его историко-богословские основы и практическая реализация в православной традиции. Анализируется развитие аскетических воззрений на основе библейских текстов, значение жизни и учения Иисуса Христа, а также аскетический опыт, отражённый в сборнике «Филокалия». Особое внимание уделяется этапам православного аскетизма, борьбе со страстями и идее святости как пути духовного совершенства.
------------------------	---	-------------------	--

Kirish. Diniy tafakkur tarixida asketizm tushunchasi insonning ma’naviy kamolotga intilishi, nafsni tiyish va ruhiy poklanish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan muhim fenomenlardan biri hisoblanadi. Xususan, xristianlik ta’limotida asketizm nafaqat axloqiy-ruhiy amaliyot sifatida, balki insonning najot topishi va “Osmon Shohligi”ga erishish yo‘lida zarur bo‘lgan vosita sifatida talqin qilinadi. Ushbu tushuncha dastlab antik yunon falsafasi va madaniy muhitida shakllangan bo‘lib, keyinchalik xristian ilohiyoti doirasida chuqur diniy mazmun bilan boyitildi.

Xristianlik asketizmi Bibliyaning Eski va Yangi Ahd matnlariga tayangan holda rivojlanib, Iso Masihning hayoti va ta’limoti bilan uzviy bog‘liq holda shakllandi. Ayniqsa, Yangi Ahd matnlarida insonning o‘z ustida ishlashi, irodasini tarbiyalashi, jismoniy va ma’naviy ehtiroszlarni nazorat qilishi asketik hayotning muhim sharti sifatida talqin etiladi. Bu jarayon xristianlikda

sinergetik tamoyil - ya'ni Xudoning inoyati bilan inson irodasining uyg'unligi orqali amalga oshadi.

Mazkur maqolada xristianlikda asketizm tushunchasining shakllanishi, uning asosiy manbalari, pravoslavlikdagi nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, asketik hayotning bosqichlari va shakllari ilmiy-tahliliy yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqot davomida xristian asketizmining tarixiy rivoji, uning muqaddaslik g'oyasi bilan aloqadorligi hamda "Filokaliya" to'plami asosida shakllangan pravoslav asketik an'analariga alohida e'tibor qaratiladi.

Muhokama va natijalar. Asketizm atamasi xristianlik dunyosiga kirib kelishi ma'lum bosqichlarni qamrab oladi. Bu atama yunon yozuvchilari orqali xristianlik diniga kirib kelgan va u yerda falsafiy an'anaga nisbatan chuqurroq, o'ziga xos diniy mazmun bilan boyitilgan.

Xristianlikka ko'ra, asketizm din bilan uzviy bog'liq tushuncha sifatida qaraladi. Shu bois, diniy qarashlarning o'zi asketik amaliyotlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ko'pincha ularning shakllanishiga sabab bo'ladi deb e'tiqod qilinadi.

Xristianlikda "Bibliya" ning "Eski Ahd" (ibr. Kitve kodesh, Tanax) qismidagi "...yaxshilik va yomonlikni bilish daraxtining mevasidan yemaysan..." (Ibtido 3:17) matni asketizmning asosi sifatida qaraladi [1].

Yangi Ahd matnlarida "oskain" fe'li "tirishmoq", "harakat qilmoq" ma'nosida "Havoriylar kitobi" ning 24-bob, 16-matnida uchraydi: "Ayni shu sababdan Xudo va xalq oldida men doim vijdonimni sof saqlashga tirishaman". Boshqa joylarda avliyo Pavlus bu tushunchaga ma'nodosh bo'lgan "gumnazō" (mashq qilmoq, chiniqmoq) va "gumnasia" (mashq, jismoniy tarbiya) so'zlaridan foydalangan [2].

Yangi Ahdda asketizmning asosiy namunasi sifatida Iso Masihning hayoti va faoliyati ko'rsatiladi. U insoniyatning najoti yo'lida fidokorona xizmat qilganligi ta'kidlanadi. Iso Masih o'z ta'limotlarida "Xudoning Shohligi"ga erishish uchun inson o'z ustida ishlashi, o'zini tarbiyalashi zarurligini ta'kidlaydi [3]. Bu orqali esa ushbu yo'lida faqat asketik qarashlar emas, balki amaliyotlar ham muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tadi.

"Filokaliya" mualliflarining asosiy g'oyasi - tarkidunyochilik, iroda kuchi bilan najotga erishish uchun ehtiroslar bilan kurashish bo'lgan. To'plamning besh jildi pravoslav asketizmining oltin fondini tashkil etadi. Asrlar davomida pravoslavlik rohiblari va e'tiqod vakillari uchun ushbu kitob asketizmning ma'naviy va amaliy tajribalari asosini jamlagan manba hisoblanadi.

Yunoncha "Filokaliya" ("Добротолубие") so'zi "go'zallikka, yuksaklikka, ezgulikka muhabbat", ya'ni "ruhiy go'zallikka intilish, go'zallikni sevish" degan ma'noni bildiradi. Bu yerda

nazarda tutilgan go'zallik - bu ruhiy go'zallik bo'lib, unga yuqorida sanab o'tilgan zohidlarning ushbu to'plamda jamlangan ko'rsatmalariga amal qilish orqali erishilishi ta'kidlanadi [4].

Ushbu asarda asketizmga quyidagicha ta'rif beriladi: "Xudoning ne'mati barcha odamlarni bu ruhiy hayotga chaqiradi, bu hayot nafaqat chaqiriq, balki zarur hamdir, chunki aynan shu hayot xristianlikning mohiyatini tashkil etadi. Ammo unga faqat chaqirilganlarning ba'zilar erishadilar va bu ne'matdan bahramand bo'lganlar ham uni har xil darajada qabul qiladilar. Tanlangan zotlar esa bu yo'lga chuqur kirib borib, uning pog'onalarida yuqoriga ko'tariladilar"[5]. Ushbu ta'rifda asketizm xudoning ne'mati va insonlarga vazifa qilib qo'ygan amali sifatida izohlanadi. Shuningdek, uning bosqichlari mavjudligi, unga erishish mashaqqat talab qilishi va erishganlar "yuksak maqom"ga yetishi haqida eslatib o'tiladi.

Shu bilan birga, Yangi Ahd asosida shakllangan xristian asketizmi insonning ruhiy kamolot yo'lida uzluksiz kurash olib borishini nazarda tutadi. Bu jarayon sportchilar yoki jangchilarning o'z ustida ishlashi bilan taqqoslanadi.

Ta'limotga ko'ra, najot topish masalasida ham Xudoning xohishi, ham insonning erkin ixtiyori ishtirok etadi. Bu ixtiyor inson tomonidan amalga oshiriladigan ezgu amallar orqali namoyon bo'ladi. Xususan ushbu tamoyil xristian ilohiyotida "sinergetik tamoyil" deb ataladi - ya'ni insonning ma'naviy hayotida Xudoning irodasi bilan inson irodasining uyg'un ekanligi ta'kidlanadi. Asketizm esa komillikka yetishishda vosita vazifasini bajaradi [6].

Avliyo Grigoriy Bogoslov fikriga ko'ra, asketik amaliyotlar qadimda yunon faylasuflari va donishmandlari orasida ham amaliyotda bo'lgan. Bunday mashqlar maqtov va o'zini namoyon qilish vositasi sifatida ko'rilgan. Xristianlarda esa bu mashqlar "filosofiya" deb nomlangan bo'lib, ular haqiqiy fidoyilikni anglatganligini ta'kidlaydi.

Avliyo Makariy: "Ba'zi donishmandlar asketik mashqlarni faylasuflikda, ilmda va dunyoviy san'atda ham qo'llashgan. Avliyolar esa asketik faoliyatni aynan fazilatlarda ko'rishgan. Makariy aytadi: "Xudoni sevish va yurakdagi poklikni saqlash - inson uchun eng oliy maqsaddir." Avliyo Grigoriy esa shunday deydi: "Xudoning hukmiga binoan, odamlar asketizm orqali fazilatlarni egallashga majburdir" [7].

Avliyo rimlik Ioann Kassianing ta'rifiga ko'ra: "Asketizm - bu "Osmon Shohligi"ni qo'lga kiritishni o'zining yakuniy maqsadi qilgan san'at yoki ilm bo'lib, uning asosiy vazifasi - qalb pokligiga erishishdir. Qalb pokligisiz esa "Osmon Shohligi"ni qo'lga kiritish imkonsizdir" [8].

Pravoslavlik e'tiqodiga ko'ra, komillikka erishish barcha xristianlar uchun umumiy talab deb hisoblagani bois, asketizmni ham har bir e'tiqodchiga yuklatilgan umumiy burch deb biladi. Bu burch esa turli shakllarda - monastir hayoti va faol ijtimoiy hayotda amalga oshiriladi.

Ta'limotda ta'kidlanishicha, Iso Masihning ko'plab izdoshlari ham har davrda axloqiy komillikka aynan asketizm yo'li bilan intilgan va erishganligi haqida aytiladi. Chunki ular asketizmni "muqaddaslik" sari olib boruvchi yo'l deb hisoblashgan.

Insonning xohish va irodasining o'zi komillikka olib kelmaydi. Bunda insonning tana va ruhiy g'ayrati o'zaro bog'liq bo'lishini ta'kidlagan holda, faqat ilohiy inoyat inson tabiatini qutqarishi, o'zgartirishi, shifolashi va yangilashi mumkin, deb hisoblanadi. Hayotning asosiy maqsadi Xudoni va o'zgalarni sevishdir: "Iso unga dedi: "Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, butun joningiz bilan va butun ongingiz bilan seving, bu birinchi va eng buyuk amr, ikkinchisi unga o'xshaydi: o'zgani o'zing kabi sev" (Matto 22: 37-40) [9].

Asketizm mohiyati xristianlikda umumiylik kasb etsada, amaliy jihatdan yo'nalishlarda o'ziga xos farqlar kuzatiladi. Xristianlikning pravoslavlik yo'nalishida asketizmni uch bosqichli amaliyot sifatida qaraladi. Bu qarash mashhur yunon ilohiyotshunoslaridan biri, mitropolit Iyerofey (Vlaxes) tomonidan ilgari surilgan. Unga ko'ra bu uch bosqich quyidagilardan iborat: 1- poklanish; 2- ma'rifat; 3-ilohiylik (ilohiylashtirish).

Dastlabki bosqich - tavba (pokayaniye) ma'nosini ifodalovchi "kayatsya" fe'li umumslavyanlarda aybni tan olish, o'zini jazolash, qilgan ishidan pushaymon bo'lish kabi bir necha mazmunlarga ega. Yunon tilida bu so'z fikrlar almashinuvi, pushaymonlik, qayta tug'ilish, butkul yangilanish ma'nolarini ifodalaydi. Shuningdek, pravoslavlik asketizmida ehtiros (strast) tushunchasi muhim hisoblanadi. Mitropolit Iyerofeyga ko'ra ehtiros - gunohkorlikning so'nggi bosqichi, ya'ni gunoh ma'lum bosqichlarda amalga oshiriladi, ong orqali, xohish, amalga oshirish va ehtiros. Ehtiros - bu takrorlanib turuvchi jarayon deb qaraladi [10].

Pravoslavlikda ehtiros tashqi kuch emas, balki shaxsning o'zidan, ya'ni qalbidan kelib chiqqan, zararlangan, shu bilan birga yangilanishga muhtoj kuch hisoblanadi. Psixologiyada bu o'zgarish transmodulyasiya deb ataladi.

Xristianlik asketikasida ehtirosning bir nechta asosiy turlari farqlanadi: ochko'zlik, zino, xasislik, g'azab, qayg'u, tushkunlik, manmanlik, kibr va h.k. Ehtirosning bu turlari barchasini qarshi amaliyot bilan yangilash mumkin, ya'ni ochko'zlikni tiyilish, zinoni iffat, xasislikni sahiylik, g'azabni muloyimlik, tushkunlikni umid, manmanlikni kamtarlik kabi.

Pravoslavlik asketizmining ikkinchi bosqichi – ma'rifat hisoblanib, u isixiya (yun. Isixiya-sokinlik, xotirjamlik, yolg'izlik) dan boshlanadi. Bu bosqichga ehtirolardan xalos bo'lgan (to'liq bo'lmasada, his qilgan)lar o'tadi. Chunki isixiya - sokinlik, aql va qalb xotirjamligi ma'nolarini ifodalaydi. Bu bosqichda inson ikki faoliyatni amalga oshiradi: aqlning qalbga bo'ysunuvi va

tinimsiz ibodat. Ma'rifat bosqichi yakunida inson poklanib, shahvoniy nafsdan xalos bo'lishga erishadi.

Uchinchi bosqich - ilohiylik hisoblanib, bu bosqich Sharqiy cherkov hayotida markaziy ta'limot sanaladi hamda pravoslavlikning diniy ideali sifatida qaraladi.

Dastlab asketlar amaliyotlarida oilada qolish, begonalar bilan aloqani uzish, ibodat qilish uchun cherkov yaqinida hujralar (kelya) paydo qilish holatlari kuzatilgan. Asketizmning bu ko'rinishlari Yunonistonda uzoq vaqt saqlanib qoldi. Dastlabki ikki (I-II) asrda asketik hayot tarzining barcha ko'rinishlarida tashkiliy jihatdan uyushish kuzatilmagan, asketlar bir-biridan yakka holda yashaganlar, qat'iy belgilangan tartib yoki normaga asoslangan biror jamoa yoki uyushma tuzilmagan.

III asr oxiriga kelib esa zohidlik aniqroq xarakterga ega bo'la boshladi. Xristian asketlari o'z ibodatlarini dunyodan (ijtimoiy hayotdan) uzoqlashgan holda amalga oshirishni ma'qul bilganlar. Shuning uchun ular shahar, qishloqlarni tark etib, tog'lar va sahrolarga o'rtnashganlar. Dunyodan (ijtimoiy hayot) shu yo'l bilan uzoqlashganlarni anaxoret (lot. anchorite) va yeremitlar (lot. hermit) deyiladi[11].

Imperator Deki (250 y.) davridagi quvg'inlar ta'sirida dastlabki xristianlar orasida asketlik hayot tarzini (anaxoretlikni) ma'qul ko'ruvchilar soni oshib ketishi kuzatilgan. Umuman olganda, xristianlikning dastlabki asrlarini asketik amaliyotlarning to'liq tizimi deb atash mumkin emas. Zero, bir necha asrlar davomida, asketlarning ko'pchiligi jamiyatdan ajralmadi va bu birinchi uch asr asketizmining keyingi davrlar an'analari o'rtasidagi muhim farqlaridan biri hisoblanadi [12].

IV asrda asketizmning eng obro'li shakli sifatida shahidlik maqomi keng yoyildi. Shahidlik Yangi Ahdda keltirilgan "O'z jonini ayamoqchi bo'lgan uni yo'qotadi.

Umumiy olganda, pravoslavlikda asketizm, insonning mohiyati hisoblangan - gunohkorlik va ilohiy obraz o'rtasidagi ziddiyatni yengish vositasi sifatida qaraladi. Bu yerdagi asosiy g'oya - najotga faqat ichki kurash, doimiy tavba, itoatkorlik va o'zini inkor etish orqali erishilishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Xulosa. Xristianlikda asketizm insonning ruhiy kamolotga erishish, nafsiy ehtirolarni yengish va Xudoga yaqinlashish yo'lida olib boradigan uzluksiz ichki kurash jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, asketizm xristian ta'limotida faqatgina jismoniy cheklanishlar majmui emas, balki insonning irodaviy, axloqiy va ma'naviy jihatdan poklanishini nazarda tutuvchi murakkab tizimdir.

Pravoslavlik an'anasida asketizm poklanish, ma'rifat va ilohiylik bosqichlari orqali izchil ravishda amalga oshiriladi. Bu bosqichlar insonning ehtirolardan xalos bo'lishi, qalb pokligiga

erishishi va ilohiy inoyat bilan uyg'unlashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. "Filokaliya" to'plamida jamlangan avliyolar ta'limoti pravoslav asketizmining nazariy va amaliy asoslarini mujassamlashtirgan bo'lib, u asrlar davomida ruhiy tarbiya maktabi vazifasini bajargan.

Xulosa qilib aytganda, xristian asketizmi inson tabiatidagi gunohkorlik va ilohiy obraz o'rtasidagi ziddiyatni yengish vositasi sifatida talqin etiladi. Ushbu ta'limotga ko'ra, komillikka faqatgina tashqi ibodatlar emas, balki ichki poklanish, doimiy tavba va o'zini tarbiyalash orqali erishish mumkin. Shu jihatdan, asketizm xristianlikda muqaddaslikka eltuvchi asosiy yo'llardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G. Xudoyberganova. Xristianlik va islomda asketik qarashlar tarixi va evolyutsiyasi qiyosiy tahlili. – Dis. Avtoreferat. – T.: 2023. – B. 19.
2. Дергалеv С.М., свящ. Введение в православную аскетику. - СПб. : Контраст, 2017. – С. 4.
3. Дергалеv С.М., свящ. Введение в православную аскетику. - СПб. : Контраст, 2017. – С. 5.
4. Добротолюбие. Сергиев Посад: Изд. Свято-Троицкой Сергиевой Лавры (С-ТСЛ). 1992, т. 2. – С. 7.
5. O'sha manba: – С. 8.
6. Дергалеv С.М., свящ. Введение в православную аскетику. - СПб. : Контраст, 2017. – С. 5.
7. Сергея Зарина. Опыт систематического раскрытия вопроса. - СПб.: Типография В.Ф. Киршбаума. 1907. – С. 5.
8. Дергалеv С.М., свящ. Введение в православную аскетику. - СПб. : Контраст, 2017. – С. 7.
9. G. Xudoyberganova. Xristianlik va islomda asketik qarashlar tarixi va evolyutsiyasi qiyosiy tahlili. – Dis. Avtoreferat. – T.: 2023. – B. 19.
10. G. Xudoyberganova. Xristianlik va islomda asketik qarashlar tarixi va evolyutsiyasi qiyosiy tahlili. – Dis. Avtoreferat. – T.: 2023. – B. 19.
11. G. Xudoyberganova. Xristianlik va islomda asketik qarashlar tarixi va evolyutsiyasi qiyosiy tahlili. – Dis. Avtoreferat. – T.: 2023. – B. 48.
12. Корпачев П.А. Аскетизм в христианстве I века. Вестник Челябинского государственного университета, 2016. – С. 30.